

2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limining stajor-tadqiqotchilik institutiga, tayanch doktorantura va doktoranturasiga qabul to'g'risida E'LON

2025 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limining stajor-tadqiqotchilik instituti va doktoranturasiga quyidagi ixtisosliklar bo'yicha hujjatlar qabul qilinadi:

№	Ixtisosliklar	Doktorantura	Tayanch doktorantura	Stajor-tadqiqotchilik instituti
1	04.00.01 – Umumiy va mintaqaviy geologiya	-	2	1
2	05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi	-	-	1
3	06.02.01 - Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish, ko'paytirish, seleksiyasi va genetikasi. Qorako'lchilik	-	1	-
4	06.01.08 – O'simlikshunoslik	-	1	-
5	02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi	-	1	-
6	13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi	-	1	1
	JAMI	-	6	3

Tayanch doktoranturaga kiruvchi nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim;

- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, magistr darajasi joriy etilguncha olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga hamda muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallar va nashrlarda chop

etilgan kamida bitta ilmiy maqola va ilmiy-amaliy konferentsiyalarda tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ikkita ma'ruza-tezisga ega bo'lish;

- chet tili darajalarini belgilovchi sertifikatning mavjudligi;

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar - mutaxassislik fanlardan imtihon topshiradilar.

Tayanch doktoranturaga o'qishga hamda stajor-tadqiqotchilikka talabgorlar qabul komissiyasiga daraja.ilmiy.uz onlayn platformasi orqali kerakli ma'lumotlarni to'ldirib, quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi nomiga ariza;

- pasport nusxasi;

- qisqacha biografik ma'lumotnoma;

- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);

- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi nusxasi;

- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

Hujjatlar 2024 yilning 15 oktyabrigacha qabul qilinadi.

Ma'lumotlar uchun tel: (90) 730-00-77.